



## RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BO‘LAJAK AVLODNI TARBIYALASHNING DEONTOLOGIK VA KOMMUNIKATIV ASOSLARI

**Kurbanbayeva Mukaddas Kozibayevna,**

*Toshkent gumanitar fanlar universiteti o‘qituvchisi*

<https://orcid.org/0009-0005-7245-273X>

[qurbanbayevamuqaddas9@gmail.com](mailto:qurbanbayevamuqaddas9@gmail.com)

**Annotatsiya.** Maqolada raqamli transformatsiya sharoitida bo‘ljak avlodni tarbiyalashning deontologik va kommunikativ asoslari tahlil qilingan. Raqamli muhitning ta‘lim va tarbiya jarayoniga ta‘siri, pedagogning kasbiy burchi, axloqiy mas‘uliyati hamda raqamli muloqot madaniyatini shakllantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, raqamli avlodni tarbiyalashda pedagogik deontologiya tamoyillari, axborot xavfsizligi, raqamli savodxonlik va kommunikativ kompetentlikni integratsiyalashning ahamiyati asoslangan.

**Kalit so‘zlar:** pedagogik deontologiya, raqamli transformatsiya, raqamli muloqot madaniyati, kommunikativ kompetentlik, axborot xavfsizligi, raqamli savodxonlik, yoshlar tarbiyasi, pedagog mas‘uliyati.

**Аннотация.** В статье анализируются деонтологические и коммуникативные основы воспитания будущего поколения в условиях цифровой трансформации. Рассматривается влияние цифровой среды на образовательный и воспитательный процессы, профессиональный долг и нравственная ответственность педагога, а также вопросы формирования культуры цифрового общения. Обоснована необходимость интеграции принципов педагогической деонтологии, информационной безопасности, цифровой грамотности и коммуникативной компетентности в воспитании цифрового поколения.

**Ключевые слова:** педагогическая деонтология, цифровая трансформация, культура цифрового общения, коммуникативная компетентность, информационная безопасность, цифровая грамотность, воспитание молодежи, ответственность педагога.

**Abstract.** This article examines the deontological and communicative foundations of educating the future generation in the context of digital transformation. It discusses the impact of the digital environment on educational and upbringing processes, the professional duty and ethical responsibility of teachers, and the development of digital communication culture. The study emphasizes the importance of integrating pedagogical deontology, information security, digital literacy, and communicative competence in the education of the digital generation.

**Key words:** pedagogical deontology, digital transformation, digital communication culture, communicative competence, information security, digital literacy, youth education, teacher responsibility.

**Kirish.** XXI asrda raqamli texnologiyalar taraqqiyoti jamiyat hayotining barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Raqamli transformatsiya nafaqat iqtisodiyot, siyosat va madaniyatga, balki ta‘lim-tarbiya tizimiga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Internet, sun‘iy intellekt, ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar va turli raqamli platformalar yosh avlodning dunyoqarashi, fikrlash tarzi hamda muloqot madaniyatini shakllantirishda muhim omillardan biriga aylanmoqda. Natijada zamonaviy ta‘lim tizimi oldida yoshlarni yangi ijtimoiy-madaniy muhitga mos ravishda tarbiyalash vazifasi yuzaga kelmoqda. Bugungi kunda “raqamli avlod” tushunchasi ilmiy muomalada keng qo‘llanilmoqda. Raqamli avlod deganda bolalik davridanoq axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qurshovida voyaga



yetayotgan, internet va raqamli vositalardan kundalik hayotining ajralmas qismi sifatida foydalanayotgan yoshlar tushuniladi. Ushbu avlod vakillari axborotni tez qabul qilishi, virtual muloqotga moyilligi, innovatsion fikrlashi bilan ajralib tursa-da, ular turli axborot xatarlari, manipulyativ ta'sirlar, kiberbulling, internet qaramligi va ma'naviy tahdidlar ta'siriga ham ko'proq duch kelmoqdalar. Shu nuqtai nazardan qaraganda, raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarni tarbiyalash masalasi faqat texnologik emas, balki pedagogik, axloqiy va kommunikativ muammo sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, pedagogning kasbiy burchi, mas'uliyati va axloqiy fazilatlarini o'zida mujassam etuvchi pedagogik deontologiya hamda shaxsning raqamli muhitdagi samarali va xavfsiz muloqotini ta'minlovchi kommunikativ kompetentlik o'rtasidagi bog'liqlikni ilmiy jihatdan tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik deontologiya pedagog faoliyatining axloqiy-me'yoriy asoslarini belgilab beruvchi muhim nazariy yo'nalish bo'lib, unda pedagogning kasbiy burchi, o'quvchilar oldidagi mas'uliyati, insonparvarlik, adolat, vijdonlilik va kasbiy etika tamoyillari ustuvor o'rin egallaydi. Raqamli ta'lim muhitining kengayishi esa ushbu tamoyillarni yangi mazmun bilan boyitishni talab etmoqda. Endilikda pedagog nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki o'quvchilarning raqamli makondagi xavfsizligi, axborot madaniyati va kommunikativ xulq-atvorini shakllantiruvchi tarbiyachi sifatida ham faoliyat yuritishi zarur.

Raqamli muloqot madaniyati zamonaviy yoshlarning ijtimoiylashuvi va shaxs sifatida shakllanishida muhim o'rin tutadi. Chunki bugungi kunda muloqotning katta qismi virtual platformalar orqali amalga oshirilmoqda. Bu esa yoshlardan axborotni tanqidiy baholash, kommunikativ etikaga rioya qilish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va raqamli xavfsizlik qoidalariga amal qilish kabi ko'nikmalarni talab qiladi. Mazkur ko'nikmalarni shakllantirishda pedagogning deontologik yondashuvi muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda ham yoshlarni ma'naviy barkamol, zamonaviy bilim va kompetensiyalarga ega shaxs sifatida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shu bois ta'lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlarini pedagogik deontologiya va kommunikativ yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish masalasi alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolaning maqsadi raqamli transformatsiya sharoitida bo'lajak avlodni tarbiyalashning deontologik va kommunikativ asoslarini tahlil qilish, pedagogik deontologiya hamda raqamli muloqot madaniyatining o'zaro integratsiyasini ochib berish hamda yoshlarda raqamli kompetentlik va ma'naviy barqarorlikni shakllantirishning samarali yo'llarini asoslashdan iborat.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim va tarbiya masalalari so'nggi yillarda pedagogika, psixologiya, kommunikatsiya va axborot texnologiyalari sohalaridagi tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, raqamli avlodning shakllanishi, ularning axborotni qabul qilish xususiyatlari,



kommunikativ faoliyati hamda ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga oid ilmiy izlanishlar tobora kengayib bormoqda. Pedagogik deontologiyaning nazariy asoslari xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli jihatlarida tadqiq etilgan. Xususan, pedagogning kasbiy burchi, axloqiy mas'uliyati va pedagogik etika masalalari pedagogika fanining muhim tarkibiy qismi sifatida o'rganilgan. O'zbekistonlik olim O. Musurmonova pedagogik deontologiyani pedagogning kasbiy faoliyatini tartibga soluvchi axloqiy me'yorlar tizimi sifatida tavsiflaydi hamda uning ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlashdagi ahamiyatini asoslab beradi [1]. Unga ko'ra, pedagogning kasbiy madaniyati va ma'naviy qiyofasi o'quvchi shaxsining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

U. Inoyatovning ilmiy qarashlarida pedagogik mahorat, kasbiy kompetentlik va pedagogik mas'uliyat masalalari keng yoritilgan bo'lib, muallif pedagogning innovatsion faoliyatga tayyorligi zamonaviy ta'lim sifatining muhim omili ekanligini ta'kidlaydi [2]. Mazkur yondashuv raqamli ta'lim muhiti sharoitida pedagog faoliyatining yangi qirralarini ochib beradi.

Raqamli madaniyat va raqamli fuqarolik masalalari UNESCO tomonidan chop etilgan ilmiy-uslubiy manbalarda keng yoritilgan. UNESCO ekspertlari raqamli fuqarolikni shaxsning raqamli makondagi mas'uliyatli, xavfsiz va etik faoliyati sifatida talqin qiladilar. Tadqiqotlarda yoshlarda tanqidiy fikrlash, axborot xavfsizligi va raqamli kommunikatsiya ko'nikmalarini shakllantirish zarurligi alohida qayd etilgan.

UNICEF tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda bolalar va yoshlarning raqamli muhitdagi imkoniyatlari bilan bir qatorda mavjud xavf-xatarlar ham tahlil qilingan. Mualliflar internetning ta'limiy imkoniyatlari yuqori ekanligini e'tirof etgan holda, yoshlarni zararli axborotlar, kiberbulling va manipulyativ ta'sirlardan himoya qilish zarurligini ta'kidlaydilar.

Xorijiy olimlar M. Prensky, D. Buckingham, S. Livingstone va boshqalarning ilmiy ishlarida "digital natives" (raqamli avlod) konsepsiyasi asoslab berilgan. Ularning fikricha, zamonaviy yoshlarning dunyoqarashi va kommunikativ xulq-atvori oldingi avlodlardan sezilarli darajada farq qiladi [3]. Shu sababli ularni tarbiyalashda an'anaviy pedagogik yondashuvlarni zamonaviy kommunikativ texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish talab etiladi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, pedagogik deontologiya, raqamli madaniyat va kommunikativ kompetentlik masalalari alohida tadqiq etilgan bo'lsa-da, ularning integratsiyasi asosida bo'lajak avlodni tarbiyalashning ilmiy-metodik mexanizmlari yetarli darajada o'rganilmagan. Mazkur holat tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqot raqamli transformatsiya sharoitida bo'lajak avlodni tarbiyalashning deontologik va kommunikativ asoslarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda pedagogik tadqiqotlarning nazariy va amaliy metodlaridan



foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, aksiologik yondashuv, tizimli yondashuv hamda pedagogik deontologiya tamoyillari tashkil etdi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida raqamli ta'lim muhiti va kommunikativ madaniyatni rivojlantirishga oid zamonaviy konsepsiyalar ham nazariy asos sifatida qabul qilindi. Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi: Shuningdek, tadqiqotda raqamli transformatsiya sharoitida bo'lajak avlodni tarbiyalashning deontologik-kommunikativ modeli taklif etilib, uning tarkibiy qismlari sifatida axloqiy mas'uliyat, kommunikativ madaniyat, raqamli savodxonlik, axborot xavfsizligi va ijtimoiy faollik komponentlari ajratib ko'rsatildi.

**Muhokama va natijalar.** Raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi natijasida ta'lim tizimida ham sifat jihatidan yangi o'zgarishlar yuz bermoqda. Bugungi kunda yoshlar nafaqat real ijtimoiy muhitda, balki virtual makonda ham faol hayot kechirmoqda. Bu esa tarbiya jarayoniga yangicha yondashuvlarni joriy etishni talab qilmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli avlod vakillarining axborotni qabul qilish, qayta ishlash va muloqotga kirishish usullari an'anaviy pedagogik yondashuvlarni zamonaviy kommunikativ texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Tahlillar natijasida aniqlandiki, pedagogik deontologiya tamoyillari va raqamli muloqot madaniyati o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Chunki pedagogning kasbiy mas'uliyati faqat auditoriya yoki sinf xonasidagi faoliyati bilan cheklanmay, balki raqamli ta'lim muhiti, ijtimoiy tarmoqlar va elektron kommunikatsiya vositalaridagi faoliyatini ham qamrab oladi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy pedagogning kasbiy kompetentligi tarkibiga raqamli kommunikativ madaniyat ham kirishi lozim. Muhokamalar davomida yana bir muhim jihat aniqlandi: zamonaviy pedagog nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki raqamli makondagi yo'lboshchi va ma'naviy mentor sifatida ham faoliyat yuritishi lozim. Chunki yoshlarning aksariyat qismi axborotni internet orqali olmoqda va ularning qadriyatlarini shakllanishida raqamli muhit tobora katta rol o'ynamoqda. Shuning uchun pedagoglarning raqamli kompetentligini oshirish, ularni media savodxonlik va raqamli etika masalalari bo'yicha muntazam tayyorlab borish muhim ahamiyat kasb etadi. Olingan natijalar asosida ta'kidlash mumkinki, raqamli transformatsiya sharoitida bo'lajak avlodni tarbiyalash samaradorligi pedagogik deontologiya tamoyillari va raqamli muloqot madaniyatining integratsiyasiga bevosita bog'liqdir.

**Xulosa.** Raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim va tarbiya jarayonining mazmuni, shakli hamda metodlari sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Raqamli texnologiyalarning kundalik hayotga keng kirib kelishi natijasida yoshlarning dunyoqarashi, fikrlash uslubi va kommunikativ faoliyatida yangi tendensiyalar yuzaga kelmoqda. Shu bois bo'lajak avlodni tarbiyalashda an'anaviy pedagogik yondashuvlarni zamonaviy raqamli muhit talablariga moslashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari pedagogik



deontologiya va raqamli muloqot madaniyati o'rtasida mustahkam uzviy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Pedagogik deontologiya pedagogning kasbiy burchi, axloqiy mas'uliyati, insonparvarlik va adolat tamoyillariga asoslangan faoliyatini belgilasa, raqamli muloqot madaniyati ushbu tamoyillarning virtual muhitdagi amaliy ifodasini ta'minlaydi. Shu sababli zamonaviy pedagog nafaqat o'z fanining bilimdoni, balki raqamli kommunikatsiya etikasi, axborot xavfsizligi va media madaniyat masalalarida ham yetarli kompetentlikka ega bo'lishi zarur. Tadqiqot davomida "raqamli deontologik kompetentlik" tushunchasi ilmiy jihatdan asoslandi va uning mazmuni pedagogning raqamli ta'lim muhitida axloqiy me'yorlarga amal qilgan holda samarali kommunikatsiyani tashkil etish, o'quvchilarning manfaatlarini himoya qilish, ularda raqamli madaniyat va axborot immunitetini shakllantirish qobiliyati sifatida talqin qilindi. Mazkur kompetentlik zamonaviy pedagog kasbiy tayyorgarligining muhim tarkibiy qismi ekanligi aniqlandi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Musurmonova O. Pedagogik deontologiya. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2019. – 256 b.
2. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., Ro'ziyeva D.I. Pedagogika: oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2020. – 640 b.
3. Prensky M. Digital Natives, Digital Immigrants // *On the Horizon*. – 2001. – Vol. 9. – No. 5. – P. 1–6.
4. Quronov M. Yoshlar tarbiyasi va ma'naviy xavfsizlik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2020. – 224 b.
5. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2021. – 320 b.
6. Podlasiy I.P. Pedagogika. – Moskva: Yurayt, 2022. – 576 s.
7. UNESCO. Digital Citizenship Education Handbook. – Paris: UNESCO Publishing, 2023. – 178 p.
8. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education. – Paris: UNESCO Publishing, 2023. – 420 p.
9. UNICEF. The State of the World's Children: Children in a Digital World. – New York: UNICEF, 2017. – 214 p.
10. UNICEF Innocenti Research Centre. Children and the Digital Environment. – Florence: UNICEF Office of Research, 2024. – 186 p.